

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAHSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

«Yengil sanoat texnologiyasi» fakulteti

Himoyaga ruxsat etildi: fakultet dekani

Kafedra mudiri,

dots. U.X.Meliboev

Dotsent I.R.Azizov

«__» _____ 2015 yil

«__» _____ 2015 yil

5320900 «Yengil sanoati mahsulotlarini konstruksiyasini ishlash va
texnologiyasi» ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi

Ermator Alimardon Aminjanovich

**«Suniy charm asosiga mo'ljallangan diagonal matosi uchun ip
yigirish texnologiyasini loyihalash» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKA IShI

Bajardi:

A.Ermator

Rahbar:

katta o'qituvchi R.Sodiqov

Maslahatchilar:

katta o'qituvchi A.Akramov

katta o'qituvchi R.Sodiqov

Namangan - 2015 y.

Mundarija

Kirish.....	4
1.Mahsulot tavsifi	7
1.1. Suniy charm asosiga matolarsining texnik xarakteristikasi.....	7
2. Texnologik qism.....	10
2. 1. Ipning sifati.....	10
2. 2. Xom ashyo tanlash va uni asoslash.....	10
2.3. Ip va tolalar xossalari o'rtasidagi bog'lanish.....	12
2.4.Tanlangan saralanmani tekshirish.....	13
2.5 Yigirish tizimi va usulini tanlash.....	15
2.5.1. Texnologik jihozlarni tanlash va ularni asoslash.....	16
2.6.Yigirish rejasini tuzish.....	27
2.6.1 Xomaki mahsulotlar va ip chiziqiy zichliklarini tanlash.....	28
2.6.2.Ipning pishitish darajasini aniqlash.....	31
2.6.3 Mashinalarni chiqaruvchi a'zolarinitezliklarini qabul qilish va asoslash.....	32
2.7 Mashinalarning nazariy ish unumdorligini aniklash.....	34
2.8. Mashinalarning foydali vaqt koefitsenti va ishlash koefitsentlarini asoslash.....	35
2.9 Jixozlarning unumdorlik normasi va xisobiy unumdorliklari.....	36
2.10 O'timlar bo'yicha pakovkalarni tanlash va xisoblash.....	37
2.11. Ip, yarim tayyor maxsulot va chiqindilarni aralashmadan chiqish miqdorlarini aniqlash.....	38
2.12.O'timlar bo'yicha soatli topshiriqlarni xisoblash va taqsimlash.....	41
2.13. Jixozlar sonini aniqlash.....	42
2.14. Yigirish rejasini qayta xisoblash.....	44
3.Mehnat muhofazasi.....	45

3.1 To'qimachilik sanoatida mehnat gigienasi va ishlab chiqarish sanitariyasi	45
3.2 To'qimachilik korxonalarini havo muxitini sog'lomlashtirish.....	47
3.3 Zararli gazlar va ulardan ximoyalanish yullari.....	47
4. Tashkiliy iqtisodiy qism.....	54
4.1. Yigirish korxonasi ishlab chiqarish dasturi.....	55
4.2.Xom ashyo balansini tuzish.....	56
4.3 Tugallanmagan ishlab chiqarish.....	60
4.4. Korxonada ishchilar sonini aniqlash.....	62
4.5.Texnologik jixozlar quvvati.....	64
4.6. Korxonaning tashkiliy texnologik ko'rsatkichlari.....	65
5.Umumiy xulosalar va tavsiyalar.....	67
Foydalanilgan adabiyotlar:.....	68

Ilova

Kirish

O'zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor, izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan-yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotgani – bularning barchasi chuqur va puxta o'ylangan maqsad, prinsip va normalarning hayotbaxsh samarasidir.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014-yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o'rnini tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e'tiborlidir. O'tgan yilda mamlakatimiz ta'lim muassasalarining 600 mingdan ziyod bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi. Shunisi quvonarliki, yoshlarimizning aksariyat katta qismi o'z kelajagini kichik biznesda ko'rmoqda. Biz o'tgan davrda amalga oshirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, “Kecha kim edigu bugun kim bo'ldik?” degan savol asosida ularning mohiyati va ahamiyatini o'zimizga chuqur tasavvur etamiz. Ayni vaqtda “Ertaga kim bo'lishimiz, qanday yangi, yuksak marralarni Egallashimiz kerak?” degan savol ustida o'ylashimiz, nafaqat o'ylashimiz, balki amaliy ishlarimiz bilan bunga javob berishimiz lozim. [1].

Jahon moliyaviy inqirozining ta'sirini kamaytirish va uning oqibatlarini bartaraf etish uchun bizda barcha zarur shart-sharoitlar mavjud. Avvalambor keyingi davr mobaynida mamlakatimizning iqtisodiy va moliyaviy salohiyatining puxta poydevorini, moliya-bank tizimining ishonchli boshqaruv mexanizmlarini o'z vaqtida

shakllantirib va mustahkamlab olganimiz bunga kafolat va asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yaqinda qabul qilingan farmoni bilan jahon moliya inqirozining oqibatlariga qarshi kurash yo'lida bank va moliya tuzilmalariga qo'shimcha yordam berish, iqtisodiyotning real sektori korxonalar va kompaniyalarining faolligini kuchaytirish va rag'batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishga solish ko'zda tutilgan.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda global inqirozning oqibatlarini, bugungi va ertangi kutiladigan ta'sirini hisobga olgan holda, qat'iy, har tomonlama o'ylangan keng ko'lamli loyihalar bugun amalga oshirilmoqda.

Albatta, mamlakatimizda bunday chora-tadbirlar tatbiq qilinishi bilan bir qatorda bu jiddiy sinovni yengish, hech shubhasiz, ko'p jihatdan hammamizdan avvalo mas'uliyatimizni teran his qilishni, barcha imkoniyat va resurslarimizni ishga solishni talab qiladi.

2015-yilda ko'zda tutilayotgan kapital qo'yilmalar hajmi AqSh dollari hisobida 15 milliard 960 milliondollar yoki 2014-yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etadi. Uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi esa 23,1 foizga yetadi. Ushbu mablag'larning 74,5 foizga yaqini ishlab chiqarish obektlari qurilishiga, 43,1 foizi asbob-uskunalar sotib olishga yo'naltiriladi. Chet el investitsiyalari hajmi 3,5 milliard dollardan oshib, ularning umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 22,1 foizni tashkil etadi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar ulushi esa 11,2 foizga ko'payadi. [1].

Bunday korxonalarining barqaror ishlashini ta'minlash, tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish uchun ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida qat'iy choralar ko'rildi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida 50 ta korxonaning byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan hamda joriy kreditor qarzdorligi qayta ko'rib chiqildi. Bu mazkur korxonalar tasarrufida 350 milliard so'mdan ortiq mablag'ni qoldirish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi [2, 3].

Mamlakatimizning mustaqillik davrida respublikaning rivojlanish strategiyasi, islohatlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi ustivor yo'nalishlardan biri iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni ta'minlashdir. Ushbu o'zgarishlar korxonalarni yangilash va texnik qayta jihozlashga, mamlakatning boy tabiiy va mineral xom ashyo salohiyatidan to'la va samarali foylanishga, eksportga moslashtirilgan va import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqariladigan quvvatlarni barpo etishga qaratilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'qimachilik va yengil sanoati korxonalari oldida ham ularning samaradorligini oshirishda muhim vazifalar turibdi. Bu korxonalaridagi samaradorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biri mahsulot ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirish orqali daromadni oshirishga erishishdan iborat.

Ma'lumki, O'zbekiston jahon bozorida xomashyo resurslarining, masalan, paxta va boshqa turdagi xomashyolarning narxi keskin tushib ketgan holatlarni ko'p marotaba boshidan kechirgan. Shu bilan birga, to'qimachilik va yengil sanoatning boshqa tarmoqlarida ana shu paxta xomashyosini yanada chuqur qayta ishlashni ta'minlash, bo'yalgan ip-kalava, trikotaj polotnosi va matolar kabi tayyor mahsulotlarni xorijiy mamlakatlarga eksport qilish, keyinchalik, zamonaviy texnologiya va dizaynni faol o'zlashtirish asosida, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishda ulkan samaraga erisha olamiz. Mamlakatimizda ishga solinmagan yana ko'plab rezerv va imkoniyatlar mavjudligiga birgina shu misol asosida ishonch hosil qilish mumkin. Bu o'rinda gap, avvalo, dastlabki xomashyoni va yarim tayyor mahsulotlarni yanada chuqur qayta ishlash texnologiyalarini joriy etish, buning uchun neft-gaz, neft-kimyo va kimyo, yengil sanoat va elektrotexnika tarmoqlarida yangi kompleks va korxonalar tashkil etish, shuningdek, jahon va mintaqa bozorlarida, ichki bozorimizda xaridorgir bo'lgan tayyor to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, elektronika va maishiy elektr texnika mahsulotlari, maishiy kimyo tovarlari, qurilish va pardozlash materiallari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish haqida bormoqda.

1.Mahsulot tavsifi

1.1. Suniy charm asosiga matolarsining texnik xarakteristikasi.

Gazlamalarning assortimenti juda xilma xil dir. Gazlamalarning mavjud assortimenti doimo o'zgarib turadi. Modadan qolgan, iste'moldan chiqqan, eski artikullardagi gazlamalarni ishlab chiqarish to'xtatiladi. Tola tarkibi, tuzilishi, pardozi va xossalari jixatidan yangi gazlamalar yaratish xisobiga assortiment yangilanib boradi. Ip gazlamalar maishiy va texnik xillarga bo'linadi. Maishiy ip gazlamalar assortimentining katta qismini tashkil qiladi.

Maishiy ip gazlamalar rangi, tuzilishi jihatidan turli-tuman bo'lib, kuylaklar, bluzkalar, yubkalar, shimlar, kastyumlar, sarafanlar, pal to, yarim pal to, sport kiyimlari, maxsus kiyimlar va boshqa buyumlar tayyorlashda keng ishlatiladi.

Ip gazlamalar to'qishda to'quvchilik o'rilishlarining barcha klasslari qo'llaniladi.

Bo'yalishi jihatidan ip gazlamalar xom, oqartirilgan, sidirg'a, melanj, mulinirlangan, guldor va gul bosilgan xillarga bo'linadi. Yuvilib ketmaydigan appertli, g'ijimlanmaydigan va kirishmaydigan qilib pardozlangan ip gazlamalar ishlab chiqarish yildan yilga ko'paymoqda.

Savdo preyskuranti bo'yicha ip gazlamalar 17 gruppaga: chitlar, bo'zlar, ich kiyimlik gazlamalar, satinlar, kuylaklik, kiyimlik va hakazo gazlamalarga bo'linadi. Masalan ich kiyimlik gazlamalarning bo'z, mitkal va mahsus xillari bor. Kuylaklik gazlamalar yozgi, qishki, mavsumbop va ximiyaviy kompleks iplar qo'shib to'qilgan gazlamalarga bo'linadi.

Yangi strukturali gazlamalar (dokaga o'xshash, nafis, jakkard, shakldor chiyduxobalar) ishlab chiqarish, kolorit, naqsh, turli pardozi xillarini o'zgartirish hisobiga ip gazlamalar assortimenti o'zgartirilib turiladi. Zarhalli, kashtali va shu kabi yangi gazlamalar ishlab chiqarilmoqda.

Ishlatiladigan kalava ipning hiliga qarab ip gazlamalar quyidagi xillarga bo'linadi: qayta tarash usulida yigirilgan kalava ipdan to'qilgan ip gazlama; turli usulda yigirilgan iplarni qo'shib, karda-qayta tarash va karda apparat usullarida to'qilgan gazlamalar.

Sun'iy charm asosiga muljallangan diagonal matolarga kuyilgan talablardan asosiysi, ularni tekizligi va yuza tozaligi, ishqalanishga chidamligi, kam qisqarishidir. Asos uchun kullanadigan matolar buyalgandan keyin ishqalanishga, terlashga hamda suvli ishlovlarga yaxshi chidamli bulish kerak. Asos uchun matolar sifatida kuylak bop matolardan bazilari ishlatiladi, ularni yuza zichligi katta bo'ladi. Matolarga yuqori tekislik va ishqalanishga chidamligni maxsus ishlov orqali beriladi

3135 artikulidagi sun'iy charm uchun diagonal matosi paxta tolasidan tayyorlangan to'qimalar turkumiga mansub bo'lib aksariyat 99,2sm enda ishlab chiqarilgan. Sun'iy charm uchun diagonal matosi uchun 42 teks tanda va 72 teksli arqoq iplaridan foydalinadi. Tanda va arqoq iplari sarja urilishida matoni shakllantiriladi.

Mato tanda bo'yicha zichligi $R_t = 283$ ip 10sm arqoq bo'yicha zichligi esa $R_a = 200$ ip 10sm tashkil etadi. To'qimani tanda bo'yicha zichligi nisbatan yuqori bo'lganligi uchun to'qima tanda bo'yicha pishiq xisoblanadi. Eni 99,2sm bo'lgan sun'iy charm uchun diagonal matosini ishlab chiqarish uchun 2808ta tanda iplari talab etiladi. Matoni ishlab chiqarishda tanda iplari qisqarishi 11 % matoni tanda bo'yicha zichligi yuqori bo'lganligi uchun arqoq bo'yicha qisqarishi 5,7 % .

Ma'lumotnomada [4] sun'iy charm uchun diagonal matosi STB to'quv dastgoxida ishlab chiqarish tavsiya etilgan. Sun'iy charm uchun diagonal matosini sirt zichligi 296gr/m^2 bo'lganligi uchun og'ir to'qimalar turkumiga kiradi. Eni 99,2sm bo'lgan 100 pogonometr to'qima ishlab chiqarish uchun 13,027 kg tanda iplari 15,652kg arqoq iplari sarflanadi.

Bitiruv malakaviy ishimda 3135 kuylak bop matosining texnik tavsiflari 1 jadvalda keltirilgan.

Matoning texnik xarakteristikalari

1 -jadval

Matoning atamasi	Artikul nomeri	Matoningeni, sm	Iplarning chiziqli zichligi, teks			Iplar soni		10 sm matodagi iplar soni		Urabotka	
			Tanda	Arqoq	Maton qirg'og'i	Jami	Maton qirg'og'ida gi iplar soni	R ₀	R _u	α ₀	α _u
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Sun'iy charm uchun diagonal	3135	99,2	42BD	72BD	42BD	2808	-	283	200	11	5,7

davomi

Matoning atamasi	Tig'ning tishlari soni			To'qilish rusumi	To'quv dastgoxining turi	Matoning yuza zichligi, g/m ²	Chiqindi miqdori, %		100 pog.metr xom to'qimaga sarflangan ip chiqindisiz miqdori, kg	
	nomeri	Tishdagi iplar soni					Tanda bo'yicha	Arqoq bo'yicha		
		Fon	Qirg'oq							
	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22
Sun'iy charm uchun diagonal	89	3	2	Sarja 3/3	STB	296	1,74	0.26	13,027	15,652

[4] 502 bet

2. Texnologik qism

2. 1. Ipning sifati

Ipning sifati va fizik-mexanik ko'rsatkichlari tanlab olingan tolaning xossalari bevosita bog'liq. Tola qanchalik sifatli bo'lsa, undan olingan ip shuncha sifatli bo'ladi. Lekin o'rtacha yo'g'onlikdagi ip olish uchun yuqori navdagi paxta tolasi qabul qilinsa, ipning sifati yaxshi, ammo tan narxi baland bo'ladi. Shuning uchun ma'lum yo'g'onlikdagi ip olish uchun shunday tola tanlash kerakki, ishlab chiqarilgan ipning sifati ko'rsatkichlari standartlar talabiga to'liq javob bergani holda tan narxi arzon bo'lsin.

Ipning sifati va fizik-mexanik ko'rsatkichlari tanlab olingan tolaning xossalari bevosita bog'liq. Tola qanchalik sifatli bo'lsa, undan olingan ip shuncha sifatli bo'ladi (2-jadval).

Ipning fizik-mexanik xossalari

2 -jadval

Ipni chiziqli zichligi, teks	Konditsion chiziqli zichlik va nominal chiziqli zichlik orasidagi ruxsat etilgan farq, %	Navi	Nisbiy pishilik		Pishiqlik bo'yicha variatsiya koeffitsienti, %	Sifat ko'rsatkichi	Chiziqli zichligi bo'yicha variatsiya koeffitsienti, %	Pishitish koefitsienti, α
			sN/t eks	Gs/t eks				
42	+1,5 -2,5	Bir	12,0	12,2	12,5	0,99	4,6	47,4
72	+2,0 -2,5	Bir	11,2	11,4	12,5	0,91	34,8	

[5]6 bet

2.2. Xom ashyo tanlash va uni asoslash.

Loyihalanadigan korxonada ma'lum yo'g'onlikdagi ip ishlab chiqarish uchun to'g'ri tola tanlash katta ahamiyatga ega. Yigiriladigan ip tannarxining 70-85 % ini tolaning narxi tashkil qiladi. Tolalarning turlari bo'yicha narxlari ham xar xil bo'ladi. Bundan tashqari hamma paxta navlarini ham bir birlari bilan aralashtirib bo'lmaydi, chunki ularning xossalari xar xil bo'ladi. Iplar qanday maqsadda ishlatilishiga qarab, tolaning tarkibiga xar xil talablar qo'yiladi.

Xom ashyo tanlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Tipovoy sortirovkalar asosida aralashmaplar tarkibini tuzish.
2. Tipovoy sortirovkalar tanlash.
3. Tolalarni selektsiya navlvrini tanlash va asoslash.
4. Aralashma tarkibini ip sifatiga qo'yilgan talablarni qondira olishini tekshirish.

Quyidagi 3-jadvalda chizikli zichligi 42 teks tanda va 72 teks arqoq iplarini yigirish uchun tipovoy sortirovka keltirilgan.

Tiplar bo'yicha saralanma tuzish

3 -jadval

Ipning nominal chizikli zichligi, teks	Ipning nominal nomeri	Tipli saralash	Izox
42	23,8	5- I;5- II	
72	13,9	5-III; 5-II; 5-IV	

Chizikli zichligi 42 teks tanda va 72 teks arqoq iplarini yigirish uchun paxtaning selektsion navlvrini [7] adabiyotdan foydalanib tanlaymiz va u quyidagi 4 -jadvalda keltirilgan.

Tolalarning sifat ko'rsatkichlari

4-jadval

Paxta tolasining tipi	Selektsion navi	Terim turi	Sanoat navi	Namligi, %	Shtapel uzunligi, mm	Variatsiya koeffitsienti, %	Chizikli zichligi, mteks	Pishib yetilganlik koeffitsienti	Uzilish kuchi, sN	Nisbiy uzilish kuchi, sN/teks	Iflosligi, %
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
5	C-4727	qo'l	II	5,9	31,9	28,2.	168	1,9	4	23,8	3,9
5	C-4727	qo'l	III	6,6	31,8	28,2	153	1,7	3.5	22,9	4,2

To'qimachilik sanoatida to'qimalar va matolar tayyorlashda dastgoxlarining katta tezlikda ishlashi va sifatga qo'yilgan talablarni tobora kuchayib

borayotganligi ipning xossalari, jumladan bir tekisda bo'lishga e'tiborni kuchaytirishni talab etadi. Notekislik o'z navbatida ip uzilishi va sifatni buzilishiga olib keladi. Bunday notekislikni kamaytirishda asosiy omili ipning tarkibidagi turli nav va turdagi tolalarni mahsulot hajmi bo'yicha bir xilda va bir xil zichlikda taqsimlanishini talab etadi. Shuning uchun tolalarni aralashtirish jarayoni muxim bosqich hisoblanadi.

5-jadval

Tipli saralash	Aralashma tarkibi,%
Tanda va arqoq ipi uchun	5-II nav 70% 5-III nav 30%

Bitiruv malakaviy ishida quyidagi aralashma paxta tiplari asosida tuzildi va ularning o'rtacha arifmetik qiymati inj. Sinitsin formulasi orqali aniqlandi [8].

1. Aralashmadagi tolaning pishiqligini aniqlash:

$$P_{ap} = \frac{P_1 \cdot \alpha_1}{100} + \frac{P_2 \cdot \alpha_2}{100} + \dots + \frac{P_n \cdot \alpha_n}{100} \approx \frac{4 \cdot 70}{100} + \frac{3.5 \cdot 30}{100} \approx 3,85sH$$

2. Aralashmadagi tolaning chiziqiy zichligini aniqlash:

$$T_{ap} = \frac{T_1 \cdot \alpha_1}{100} + \frac{T_2 \cdot \alpha_2}{100} + \dots + \frac{T_n \cdot \alpha_n}{100} \approx \frac{168 \cdot 70}{100} + \frac{153 \cdot 30}{100} \approx 163,5mteks$$

3. Aralashmadagi tolaning shtapel uzunligini aniqlash:

$$L_{ap} = \frac{L_1 \cdot \alpha_1}{100} + \frac{L_2 \cdot \alpha_2}{100} + \dots + \frac{L_n \cdot \alpha_n}{100} \approx \frac{31,9 \cdot 70}{100} + \frac{31,8 \cdot 30}{100} \approx 31,87mm$$

bu yerda: $R_1, R_2, \dots, R_n - 1, 2$, n navli paxta tolasini pishiqligi; sN

$L_1, L_2, \dots, L_n - 1, 2$, n navli paxta tolasini shtapel uzunligi; mm

$T_1, T_2, \dots, T_n - 1, 2$, n navli paxta tolasini chiziqiy zichligi; teks

$\alpha_1, \alpha_2, \dots, \alpha_n - 1, 2$, n navli paxta tolasini % ulushlari.

2.3. Ip va tolalar xossalari o'rtasidagi bog'lanish

Ipning kutilgan sifatga ega bo'lishi bilan bir qatorda uning tan narxini ham to'g'ri belgilash muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun yigirish korxonalarida rejalashtirilgan iplarni talab qilingan sifatda bo'lishini ta'minlash uchun birinchi

navbatda toladan yigiriladigan ipning xossalarini nazariy yo'l bilan loyixalandi. Buning uchun ipning nisbiy uzilish kuchini formulalar orqali hisoblash usuli ko'proq qo'llaniladi. Hisoblash tolalar aralashmasini to'g'ri tanlashni tezlatish bilan bir qatorda ko'p miqdordagi tolani saqlab qolishga imkon beradi.

Tanlangan tipavoy aralashmalar asosida paxta tolalaridan yigiriladigan ipning nisbiy uzilish kuchini professor A.N. Solov yov taklif etgan formulasi orqali aniqlanadi, va olinadigan ipning sifati loyihalandi .

2.4. Tanlangan saralanmani tekshirish

Karda tizimida chiziqiy zichlik 42 teks tanda va 72 teks arqoq iplari ishlab chiqarilishi kerak bo'lsa, tipli saralanmalar tavsiyasidan bu ip uchun 5 — II; 5 — Sh; saralanmasini tanlaymiz. Aralashma miqdori - 70 % ; 30% 5 tip uchun tavsiya qilingan tola navlari orasidan C-4727 navini tanlaymiz [7]. Aralashma faqat paxta tolasidan iborat bo'lgani uchun prof. A. N. Solovyev formulasidan foydalanib, loyihalayotgan ipning nisbiy pishiqligi quyidagicha hisoblandi.

$$R = \frac{P}{T_T} \left(1 - 0.0375 H_0 - \frac{2.65}{\sqrt{\frac{T_u}{T_T}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{L_{um}} \right) K \cdot \eta$$

bu yerda, R — ipning nisbiy pishiqligi, sN/teks; R — tolaning pishiqligi, sN; T_t — tolaning chiziqiy zichligi, teks; N_o — ipning solishtirma notekisligi, (qayta tarash sistemasi uchun - 3,5-4, karda yigirish sistemasi uchun -4,5—5); T_i — ipning chiziqiy zichligi, teks; L_{sht} — tolaning shtapel uzunligi, mm, K — ipning pishitilishiga tuzatma, amaliy va kritik pishitish koeffitsientlari farqlariga qarab tanlanadi, η — mashina va uskunalarning holatini ifodalovchi koeffitsient hisoblanadi, uskunar normal xolatda bo'lsa $\eta=1,0$, qoniqarli holatda bo'lsa $\eta=0,85$ va juda yaxshi (a'lo) holatda bo'lsa $\eta=1,1$ deb olinadi. Tanlangan saralanma uchun 5-tip, paxtasini olib, A.N.Solovyev formulasidan kritik pishitish koeffitsientini aniqlaymiz:

$$\alpha_{KR} = \frac{31,6}{100} \left[\frac{(1120 - 70 \cdot P)P}{L_{SHT}} + \frac{57,2}{\sqrt{T_{IP}}} \right],$$

Tolaning xossa ko'rsatkichlardan $P=3,85$ sN, $L_{sht}=31,87$ mm, $T=0,1635$ mteks ekanligi topiladi. Chiziqiy zichligi 42 teks tanda ipi olish uchun

$$\alpha_{KR} = \frac{31,6}{100} \left[\frac{(1120 - 70 \cdot 3,85) \cdot 3,85}{31,87} + \frac{57,2}{\sqrt{42}} \right] = 35,2$$

Chiziqiy zichligi 72 teks arqoq ipi olish uchun

$$\alpha_{KR} = \frac{31,6}{100} \left[\frac{(1120 - 70 \cdot 3,85) \cdot 3,85}{31,87} + \frac{57,2}{\sqrt{72}} \right] = 34,6$$

Olingan α_{kr} kiymatlarini ma'lumotnomadan olingan qiymati bilan solishtirilib, ularning farqi aniqlandi va $\alpha_t - \alpha_{kr}$ dan chiqqan farq hisobiga «K» ning miqdori [7] aniqlandi.

Keltirilgan chiziqiy zichligi 42 teks ipi uchun ma'lumotnomadan qabul qilingan pishitish koeffitsienti $\alpha_t=36,7$ va 72teks arqoq ipi uchun $\alpha_t=28,4$ ga Pishitish koeffitsientining farqi tanda ipi uchun $\alpha_t - \alpha_{kr} = -1,5$ arqoq ipi uchun esa $\alpha_t - \alpha_{kr} = 6,2$ Jadvalda [9] tanda ipi uchun (1.5) da farqga eng yaqin «K» ning qiymati – 1 da farqga eng yaqin “K” ning qiymati - 0,98, va arqoq ipi uchun 0.94 bo'ladi

Hamma olingan ko'rsatkichlarni o'z o'rniga qo'yilsa:

$$R = \frac{3,85}{0,1635} \cdot \left(1 - 0,0375 \cdot 5 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{42}{0,1635}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{31,87} \right) \cdot 1 \cdot 0,98 = 12,5 \text{ sN/teks}$$

Arqoq ipi uchun

$$R = \frac{3,85}{0,1635} \cdot \left(1 - 0,0375 \cdot 5 - \frac{2,65}{\sqrt{\frac{72}{0,1635}}} \right) \cdot \left(1 - \frac{5}{31,87} \right) \cdot 1 \cdot 0,94 = 12,7 \text{ sN/teks}$$

Hisoblab olingan $R_h = 12,5$ sN/teks nisbiy uzish kuchiga ega tanda ipi uchun mavjud me'yorlar talabi ($R_j=12$ sN/teks), va arqoq ipi uchun $R_h =$

12,7sN/teks me`yorlar talabi ($R_j=11,2sN/teks$) bilan solishtirib aralashmadan ishlab chiqariladigan ipning navi aniqlandi. Yuqoridagi hisob kitoblar shuni ko`rsatadiki, ip yuqori sifatli bo`lib ishlanadi.

Hozirgi paytda ip sifatining asosiy ko`rsatkichi nisbiy pishiqligidan tashqari ipning Uster bo`yicha chiziqiy va kvadratik notekisligi, hamda nepslar miqdori, ingichka va yo`g`on joylari va ip ustidagi tuklar soni bilan baholanadi.

2.5. Yigirish tizimi va usulini tanlash

Tabiiy va kimeviy tolalardan ip yigirishning quyidagi asosiy tizimlari mavjud: oddiy(kard), qayta tarash, melanj va apparat tizimlari. Bu tizimlar asosan ikkita belgilovchi alomatlar - tarash usuli va mahsulotni ingichkalashtirish usullari bilan farqlanadi.

Yigirish sistemalari va qabul qilinadigan mashinalarni tanlashda bir qator umumiy va aniq talablari hisobga olindi.

1. Imkoni boricha texnologik bosqichlar qisqartirildi.
2. Titish va tozalash jarayonlarini tashkil qilishda tolaning tabiiy fizik-mexanik xossalari yomonlashmasligi va mashinalar ishchi organlarining tolaga ta`sirini kamaytirish maqsadida ishchi a`zolarining tezligi me`yorida tanlandi.
3. Tanlab olingan mashinalar majmui olinadigan yarim mahsulotlar va ipning bir tekis bo`lishini ta`minlashi nazarda tutildi.
4. Yigirish texnologik jarayonlarini loyihalashda tarash jarayonining ahamiyati juda katta. Shuning uchun xorijiy firmalar universal tarash mashinalarini taklif etganlari inobatga olindi. Bundan tashqari Respublikadagi qo`shma korxonalar tajribasiga tayandim.
5. Yigirish rejalarini ishlab chiqishda yigirish usulini tanlashga katta e`tibor qaratdim.

Men bitiruv malakaviy ishimda oddiy yigirish tizimini qabul qilaman. Oddiy yigirish tizimi bo'yicha o'rtacha chiziqli zichlikdagi iplar yigiriladi. Bunday iplar keng assortimentdagi ip gazlamalar ishlab chiqarish uchun qo'llaniladi.

2.5.1. Texnologik jihozlarni tanlash va ularni asoslash.

Yigirish tezligini va unumdorligini oshirishning istiqboli faqat pishitish va o'rash jarayonlarini ajratib, alohida ishchi organlar orqali amalga oshirish, ip shakllanishi jarayonining taraqqiyotini asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Bu borada ip yigirishda pnevmomexanik usul keng tarqalgan bo'lib, mehnat va mashina unumdorligi 2-3 marta oshirilgan va pakovka massasi 4-5 kilogrammga yetkazilganligi bilan ajralib turadi.

Tolalarning tsiklik qo'shilishi ipning chiziqiy zichligi va pishiqligi bo'yicha notekisligini 30-40 foizga kamaytirib, pnevmomexanik ipning iste'mol xossalarini oshiradi.

Pnevmomexanik yigirish mashinalari ishlatilishi va xom ashyo turiga qarab uch xil - kamerali, rotorli va kondensorli pnevmomexanik yigirish mashinalari bo'ladi. Kamerali yigirish mashinalari keng ko'lamli iplarni tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlashda qo'llaniladi. Rotorli yigirish mashinalari esa past navli paxta tolasini va chiqindi tolalardan katta chiziqiy zichlikdagi iplar ishlab chiqarishda qo'llanilmoqda.

Ipning sifatli bulishi xom-ashyoning tarkibiga, shu xom-ashyoni yigirishga tayyorlash texnika va texnologiyasiga jihozlarning xolatiga va maxsulotlarning solishtirma notekisligiga bog'liq. Shuning uchun ip yigirish korxonalarida birinchi navbatda titish tozalash va tarash jarayonlaridagi mashinalarning xolatini yaxshilashga va maxsulotni sifatli tozalashni amalga oshirish muxim vazifalardan biridir. Bundan tashkari ipning sifati texnologik jarayonni to'g'ri tashkil etishga xam bog'lik bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishimda men ko'rsatilgan chiziqli zichlikdagi iplarni yigirish uchun oddiy tarash tizimini qabul qildim va pnevmomexanik yigirish usulida Shveysariyaning «Rieter» firmasining jihozlarini tanlab oldim.

Texnologik jarayondagi jihozlar

6-jadval

№	Texnologik jarayondagi jihozlar	Jixozlar markasi	
		«OQ OLTIN» nomli korxonada o'rnatilgan jihozlar	Loyihada qabul qildim
1	Avtomatik toy titgich	BDT-019/2300	UNIfloc A 11
2	Dastlabki tituvchi tozalovchi mashina	AXIFLO – AFC	UNIcean B 12
3	8 kamerali tola aralashtirgich	MRM8/1600	UNImix V 72
4	Tozalovchi mashina	CLEANOMAT CVT-3	UNIflex V 60
5	Qaytimlarni tituvchi	DX	B34
6	Tarash mashinasiga uzatish bunkeri	UNIstore A77	UNIstore A77
7	Tarash mashinasi	DK-903	S 70
8	Piltalash mashinasi	HR1000, HRS1000	SB-D 45; RSB-D 45
9	Pnevmomexanik ip yigirish	BD330	R-60

Avtomatik toy titgich UNIfloc A 11

«Rieter» firmasining toy titgichlari qo'lda ta'minlashga yoki avtomatik rashivda toylarni titishga mo'ljallangan. Avtomatik toy titgichlar **UNIfloc A 11** tolalarga shikast yetkazmasdan titish jarayonini amalga oshirib beradi. Uning unumdorligi 1400 kg/soatgacha .

Toy titgichlar paxta va kimyoviy tolalarni titishga mo'ljallangan. Bir paytning o'zida to'rt xil tolani titib berishga moslashtirilgan. Mashinani tituvchi qismini ishchi kengligi A 11 da 1700 yoki 2300 mm ga teng qilib tayyorlanishi mumkin.

Stavkadagi toylarning soni 180 tagacha bo'lishi mumkin. Birdaniga uchta tozalash liniyasidagi mashinalarga maxsulot yetkazib beradi.

«Rieter» firmasining tolalarni titish, tozalash va aralashtiriga muljallangan jixozlari bir necha turkum va guruxlarga bo'linib, ularni qo'llanish qo'lami, tola turi va titish usuliga mos ravishda turlicha belgilanagan.

UNIFloc A 11-1700/2300 rusumli avtomatik toy titgichning texnologik ko'rsatkichlari

7-jadval

№	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	Mm	1700/2300
2	Balandligi	Mm	2822
3	Toyning mak. balandligi	Mm	1600
4	Mashinaning min.eni	mm	5273
5	Mashinaning mak.eni	mm	6453
6	Mashinaning min. uzunligi	mm	10670
7	Mashinaning mak. uzunligi	mm	50270
8	Elektr energiya sarfi	kvt	14,6/16,3
9	Mak. ish unumdorligi	kg/s	1400
10	Mak.toylar soni	dona	150
11	Qabul qildim mak.toylar soni	dona	84
12	Mashinaning mak. uzunligi	mm	47,2
13	Mashinaning eni	mm	2033

Ta'minlovchi, aralashtiruvchi mashina **B 34**

Titib ta'minlovchi mashina B 33 universal bo'lib, unda qo'lda tashlangan, dastlabki maydalangan tolalar titib aralashtiriladi va navbatdagi mashinaga bir tekisda uzatib beriladi. Mashina buyurtmachi talabigi kura tituvchi mashina B-34S yoki tozalovchi mashina B-34R xolatida yetkazib berilishi mumkin. 3 metrdan 9 metrgacha bo'lgan transporter yoki surib oluvchi pnevmatik sistema yordamida ta'minlash mumkin. Aralashtiruvchi kamera alohida transporter bilan ta'minlangan. Ushbu mashina unumdorligi uncha yuqori bo'lmagan agregatlarda foydalaniladi. Mashinada paxta va kimyoviy tolalarni titish mumkin. U uch xil

variantda: B-34; B-34S; B-34R; rusumlarda chiqariladi. Ta`minlash qurilmasida uzunligi 3-9 m oralig'ida bo'lgan konveyerni har bir zvenosi 1,5 m dan bo'lib, uni 3; 4,5; 6; 7,5; 9 m qilib o'rnatish mumkin.

8- jadval

Mashinaning ish unumdorligi, kg/soat	600/400
O'rnatilgan quvvat, kVt	2,4/7,0
Gabarit o'lchami:	
Uzunligi, mm	3250
Kengligi, mm	1600
Balandligi, mm	3000
Og'irligi, kg	3160/3560,3660
Ishchi kengligi, mm	1200
Optsiya	Ta`minlovchi stolcha 3metr dan - 9metr gacha (segmentlar 1.5 m) Blok S yoki R

Dastlabki tozalochi mashina UNIClen B-12.

9- jadval

Mashinaning ish unumdorligi, kg/soat	1400
O'rnatilgan quvvat, kVt	15,3
Gabarit o'lchami:	
Uzunligi, mm	2205
Kengligi, mm	1040
Balandligi, mm	2000
Og'irligi, kg	1180
Ishchi kengligi, mm	1600

Dastlabki tozalochi mashina UNIClen B-12 toy tituvchi mashina UNIfloc B-12 mashinasidan keyin urnatiladi va uning vazifazi mayda bulakchalarni birinchi etapda tozalab berishdan iborat. Mashinanig ish unumdorligi 1400kg/soat tashkil etadi. Mashinada tozalash jarayoni tola kisilmagan, bush xolatda utadi. Mashinada urnatilgan VARIOset sistemasi yordamida tozalash jarayonini mukobillashga erishiladi. Bunda chikindi mikdori va chikindi tarkibi parametrlarini berilsa buldi. Buning natijasida xom-ashyo chikish mikdori oshadi. Mashinaning yana bir avzalliklaridan biri bu kolosniklar burchagini rostlash imkoniyati.

Aralashtiruvchi mashina B-72

Tolalarni aralashtiruvchi mashina Unimiks modeli B-72 tozalangan tolalarni samarali aralashtirish uchun xizmat qiladi. Bu mashina tozalovchi UNIClen B-12dan keyin agregatda o'rnatiladi. B-72 va B-76 aralashtiruvchi mashinalari kichik maydonda tolali maxsulotni gomogen aralashtirishga imkon beradi. Mashinasi yuqori aralashtirish samaradorligiga ega. Tolalar kanal orqali havo oqimi bilan ilgari lanma harakat qilib shaxtalarga o'tadi. Ajratuvchi tsilindrlar yordamida tola turli uzunlikdagi sakkista kameraga tushadi. Kameralardagi tolalar konveyer yordamida yon tomonga surilish oqibatida 90 gradusga burilib ustma-ust taxlangan qatlamlar ko'rinishiga keladi va zichlanadi. Yo'naltiruvchi valiklar mahsulotni bir tekisda harakatlanishini va ignali panjara bilan tartibli ravishda vertikal bo'yicha ilib olinishini ta'minlaydi. Ignali panjarada tolani qo'shimcha titishni amalga oshirish uchun tekislovchi baraban, ajratuvchi baraban o'rnatilgan. Mashinaning kameralari katta xajmga ega bulganligi keyingi mashinalarni ta'minlashga va yukori ish unumdorligiga olib keladi.

Mashinaning uchta turli nuqtasida tolalar aralashadi:

- Kameralardagi tolalar konveyer yordamida yon tomonga surilish oqibatida 90 gradusga burilishi natijasida ularda vaktinchalig siljish kuzatiladi buning natijasida berilgan sifatdagi aralashtirishga erishiladi.

- Ignali panjara birdagina xamma 8ta qatlamdan tola ajratib oladi, bu esa 2chi tasodiv aralashtirishga olib keladi.

- Valik aralashtirish zonasida uchinchi intensiv aralashtirish sodir buladi.

UNImix B72 va UNImix B 76 mashinalari ko'shimcha tituvchi (S) va tozalovchi (R) modullar bilan bo'lishi mumkin. Zarur bo'lganda bu modullar osongina mashinaga o'rnatilishi mumkin.

10- jadval

	UNImix B72	UNImix B76
Mashinaning ish unumdorligi, kg/soat	800	1200
O'rnatilgan quvvat, kVt	4.4	6.4
Gabarit o'lchami:		
Uzunligi, mm	7830	7700
Kengligi, mm	1515	2115
Balandligi, mm	4173	4173
Og'irligi, kg	3850	5300
Ishchi kengligi, mm	1200	1800
Optsiya	Modul R Modul S	Modul R Modul S

Mashinani chiqarish tomonida tozalovchi baraban va chiqindi kamerasi qo'shimcha o'rnatish imkoniyati bor. Bu mashina gabaritini o'zgartirmaydi. Tozalovchi zonaga tolalar ajratuvchi barabandan tug'ri turtburchak ko'rinishidagi kamera orqali tushadi. Tozalovchi tola baraban yuzaga keltirgan inertsiya kuchi va navbatdagi mashina ventilyatori yordamida havo quviri orqali chiqariladi.

UNIflex B 60 tozalovchi mashinasi

«Rieter» firmasi bir necha o'n yillar davomida titish tozalash agregatlari tarkibida o'rnatiladigan tozalovchi mashinalar sonini samarali minimumga yetkazish maqsadga erishildi. Bunga erishish uchun sifatini saqlagan holda dastlabki titishda

minimal og'irlikdagi bo'lakchalarga ajratib, xas cho'plarni sirtga chiqarishga erishish; birinchi bosqichda yuqori samara bilan tozalash; has cho'plarni changini tozalash; xas cho'plarni maydalanishini oldini olish hisobiga navbatdagi bosqichda tozalash jarayonini oldini olish; tozalash jarayonida tolalarni chiqindiga chiqishini kamaytirish hisobiga erishiladi. Firmada ishlab chiqarilgan mashinalar va ulardan tuzilgan agregatlar barcha turdagi paxta va kimyoviy tolalarni, ularni aralashmasini ishlatishga moslashgan. Tozalovchi odatda avtomatik toy tituvchidan keyin o'rnatiladi. Bu titilgan mayda bo'lakchalarni tezda tozalash imkoniyatini beradi. Mashinada o'rnatilgan tozalovchi baraban sirtiga mahsus ko'rinishdagi shtift-qoziqlar o'rnatilgan. Bu qoziqchalar maxsus po'lat simdan tayyorlanagan va baraban sirtiga vint chizigi bo'yicha joylashtirilgan. Baraban ostida uch qirrali chiqindi chiqaruvchi panjara o'rnatilgan. Baraban qoziqlari materialni panjara qirralariga urishi oqibatida undan has cho'p va nuqsonlar ajralib tozalanadi. Qoziqni kichik va siyrak o'rnatilganligi hisobiga tolaga zarba kuchi uncha katta bo'lmaydi. Bu esa tolni zararlanmasligini ta'minlaydi.

UNiflex B 60 tozalovchi mashinasi texnik tavsifi

11-jadval

№	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati
1	Ramasining eni	mm	1600
2	Xom ashyo turi		Paxta, 1 yon
3	Ishchi qismining eni	mm	1200
4	Tozalovchi valik diametri	mm	400
5	Tozalovchi valik aylanishlar soni	ayl/min	500-1300
6	Balandligi	mm	3853
8	Mashinaning eni	mm	1800
9	Mashinaning uzunligi	mm	1430
10	Elektr energiya sarfi	kvt	9,0
11	Mak. ish unumdorligi	kg/s	500

«Rieter» firmasining C 70 rusumli tarash mashinasi

12-jadval

Texnologik kursatkichlar	C-70	C-70 SVA bilan	C-70 SB	C-70 RSB
xom-ashyo	Paxta va kimyoviy tolalar 65mm gacha			
Ish unumdorligi, kg/soat	280	280	280	280
Chiziqli zichligi kteks	4-20	4-20	4-20	4-20
Katlam og'irligi, g/m	650-950	650-950	650-950	650-950
Texnik kursatkichlari				
O'rnatilgan kuvvat, kvv	21,0-21,7	21,0-21,7	21,0-21,7	21,0-21,7
Chiqazish tezligi, m/min	330	330	330	330
Zichlangan xavo, m/ch	0,7	0,7	0,7	0,7
Ishlatilgan xavo	1,43	1,43	1,43	1,43
Chiqindilarni olish	Markazlashgan xolda, k/b tagidan aloxida			
Mashina parametrlari				
Uzunligi(bunker bilan)	3325	5781-6181	5781- 6181	9152-9255 rolikli tazlar bilan) 8262-8912 (roliksiz tazlar bilan)
Mashina og'irligi (bunker bilan), kg	5575			
Ishchi kengligi, mm	1500	1500	1500	1500

Titish-tozalash agregatidan so'ng paxta tolasining nuqsonlardan tozalashning oxirgi bosqichi tarash mashinalarida amalga oshiriladi. «Rieter» firmasining C 70 rusumli tarash mashnasi yuqori unumdorlikka ega. Mashinaning qabul barabani qismi oddiy va uchta barabandan iborat. Mashinada tarash zonasining uzaytirilganligi, ya'ni mashina eni 1000mmdan 1500 mmga oshirilganligi va mashinada qoplamalar tishlarini o'tkirlab turuvchi yangi IGS sistemasini qo'llanilishi natijasida mashina ishlash vaqtini oshirish bilan birga mahsulot sifatini yaxshilanishiga olib keldi.

SB-D 45 va RSB-D 45 rusumli «Rieter» firmasi piltalash mashinalari.

Rieter firmasining pilta tayyorlash jixozlari sistemasi piltalash mashinalari, piltani qayta tarashga tayyorlash jixozlari va qayta tarash mashinalaridan iborat.

Piltalash mashinalari tarash va qayta tarash mashinalaridan olingan piltani qo'shish va cho'zish asosida undagi tolalarni tekislash, parallellash va notekisligini kamaytirish uchun xizmat qiladi. Firma bir necha rusumdagi mashinalarni ishlab chiqaradi. Ularda chiqarish tezligi 1100 m/min ga teng.

Mashinada o'rnatilgan uch tsilindrli cho'zish asbobi valiklariga bosim pnevmatik usulda 800 N gacha yuzaga keltiriladi. Piltani taxlashda zichlovchi moslamaning o'rnatilishi idishdagi pilta og'irligini 10 % ga oshirish imkonini beradi. To'lgan idishlarni almashtirish avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Cho'zish zonasidan changli havoni tortib olinishi tsexdagi ekologik tozalikni ta'minlaydi.

Mashinani ta'minlash stoli idishni balandligiga moslab 1400 dan 2000 mm gacha balandlikda o'zgartirilishi mumkin. Cho'zish zonasidan chiqayotgan piltani yo'naltiruvchi kanal-patrubkaga havo yordamida zapravka qilinishi xizmat qilishni osonlashtiradi. Mashinalarda piltani chiziqli zichligini avtomatik rostlovchi mexanizmlar o'rnatilgan.

SB-D 45 va RSB-D 45 rusumli «Rieter» firmasi piltalash mashinasi texnik tavsifi

13-jadval

№	Texnik ko'rsatkichlari	O'lchov birligi	Qiymati	
			SB-D 45	RSB-D 45
1	Chiqarish tezligi	m/min	1100	1100
2	Tola uzunligi, gacha	mm	10-80	10-80
3	Mak. ish unumdorligi	kg/s	xisobiy	xisobiy
4	Ta'minlanayotgan piltaning chiziqli zichligi	kteks	12-50	12-50
5	Chiqayotgan piltaning chiziqli zichligi	kteks	1,25-7	1,25-7
6	Cho'zish asbobi rusumi		4x3	4x3
Tozlar				
7	Tozlarning diametri	mm	210-1000	210-1000
10	Tozlarning balandligi	mm	210-1520	210-1520
11	Umumiy cho'zilish qiymati	E	4,4-11,7	4,5-11,6
12	Tozlar diametri 1000 mm bo'lganda	kvt	5,0Q2,0	7,5Q3,6
13	Piltalarning qo'shilishlar soni	dona	6-8	6-8

«Rieter» firmasining R-60 rusumli pnevmomekanik ip yigirish mashinasi

Pnevmomekanik ip yigirish mashinalari bir necha turlari mavjud bo'lib ulardan to'qimachilik korxonalarida keng foydalanilmoqda. Ulardan asosan o'rta chiziqli zichlikdagi iplar ishlab chiqarish nazarda tutilgan bo'lsada ushbu R-60 yigirish mashinasi kichik chiziqli zichlikdagi, ya'ni 10 teksgacha ip yigirish imkoniga ega. Yana mashina unumdorligi oshirish bilan birga, maxsulot sifatiga xam e'tibor berilmoqda.

14-jadval

Asosiy ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Qiymatlari													
Xom ashyo turi		Paxta va kimyoviy tolalar													
Buram soni	br/metr	196-1500													
Rotor diametri	mm	28	30	31	33	34	36	37	40	41	46	47	48	56	57
Rotorning aylanishlar soni, (x 1000)	min ⁻¹	150	145	140	135	130	120		105		75			55	
Ishlatiladigan tola uzunligi	mm	60	Paxta va kimyoviy tolalar												
Mashinada kameralar soni	dona	20,40,60, 80, 100, 120, 140, 160, 180, 200, 220, 240, 260, 280, 300, 320, 340, 360													
Kameralar orasidagi oraliq masofa	mm	245													
Ishlab chiqaradigan ipning chiziqli zichligi	Ne	3-60													
	Nm	100-5													
	teks	10-200													
Ta'minlanayotgan piltaning chiziqli zichligi	Ne	0,24-0,08													
	Nm	0,4-0,14													
	kteks	2,5-7													
Diskret barabaning aylanishlar soni	Min ⁻¹	6000, 7500, 8500, 9000, 10000													
Ip chiqarishning maksimal tezligi: 240kameraligida	m/min	235													

560 kameraligida		200
Cho'zish Qiymati		40-400
Naychaga o'ralgan ipning o'lchami	mm	300x150(tsilindrik shaklda o'ralganda) 270x150(konus shaklida o'ralganda)
Naychadagi ipning massasi	kg	4,0 ga yaqin
O'ram diametri	mm	TSilindrik 350-5kg Konus 270
O'ram shakli		TSilindrik va konus
Naychaning o'lchovlari	mm	TSilindrik 54x170; 62,6x170 Konus 65x170; 59x170
Ipning o'ralish zichligi	g/sm ³	0,32-0,42
Taz diametrlari	mm	235
Taz balandligi	mm	920; 1070 yoki 1200 gacha taklifga binoan
Bitta sektsiyadagi kameralar soni	dona	20
Xarakat uzatish tizimi		Tangentsial xarakat uzatmasidan foydalanilgan
Mashinaning eni	mm	3161
Uzunligi	mm	50069 (360 kamera)

2.6. Yigirish rejasini ishlab chiqish.

Yigirish rejasini xomaki mahsulotlar va ip tayyorlashdagi texnologik jarayonlarning parametrlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Mahsulotlarning chiziqiy zichligi, qo'shilishlarning soni, cho'zish miqdori, pishirilganligi va pishitish koeffitsientlari, chiqaruvchi ishchi organlarning tezlik ko'rsatkichlari, mashinalarning foydali vaqt koeffitsienti, mashinadan foydalanish koeffitsientlari,

mashinalarning nazariy va amaliy ish unumdorligi kabi ko'rsatkichlar yigirish rejasida jamlangan bo'ladi.

Yigirish rejasini ishlab chiqishda tanlab olingan har bir ko'rsatkich atroflicha asoslandi. Har bir ko'rsatkichnm tanlashda turli ma'lumotnomalardan, ilmiy tadqiqot muassasalari tavsiyalaridan, ilg'or korxonalarining ish tajribalaridan foydalanildi.

2.6.1 Xomaki mahsulotlar va ip chiziqiy zichliklarini tanlash.

Yigirish rejasida keltirilgan xomaki mahsulotlarning chiziqiy zichligini hisoblab chiqishda ikki usul qo'llanadi: birinchi usulda avval tarash piltasining chiziqiy zichligi tanlanib, keyin piltalash mashinasi, pilik va ip chiziqiy zichligi hisoblanadi. Ikkinchi usulda aksincha ipning chiziqiy zichligidan boshlab, pilikning, piltalash piltasining va oxirida tarash piltasining chiziqiy zichligi tanlanadi. Birinchi usul ancha qulay va ko'p ishlatiladi. Xomaki mahsulotlarning chiziqiy zichligini tanlash va hisoblashda yigirishdagi umumiy qoidalardan, ilg'or korxonalarining tajribalaridan, mashinalarning texnik tavsiflaridan va ilmiy tadqiqot muassasalarining tavsiyalaridan foydalanildi [8,9,11,14].

Xomaki mahsulot chiziqiy zichliklarini aniqlash uchun birinchi usul qo'llanildi, avval tarash piltasining chiziqiy zichligi aniqlandi. Buning uchun umumiy formuladan foydalanamiz, ya'ni

$$E \cdot T_{chik} = T_{kir} \cdot d$$

bu yerda, T_{kir} — kirayotgan mahsulotning chiziqiy zichligi, teks;

T_{chik} —chiqayotgan mahsulotning chiziqiy zichligi,teks;

E — cho'zish miqdori; d —qo'shilishlar soni.

Chiqayotgan mahsulotning chiziqiy zichligini tanlab, kirayotgan mahsulotning chiziqiy zichligini aniqlash ham mumkin, ya'ni

$$T_{kir} = T_{chik} \cdot \frac{E}{d}$$

Cho'zish miqdorini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanadi

$$E = \frac{T_{kir}}{T_{chik}} \cdot d$$

Yuqoridagi formulalar yordamida yigirish rejasiga kirgan xomaki mahsulotlarning chiziqiy zichligi va cho'zish darajasini hisoblash mumkin. Mahsulotlarning chiziqiy zichligi va cho'zish miqdorini tanlashda quyidagi umumiy qoidalar mavjud:

- 1) cho'zish miqdori qancha ko'p bo'lsa, olinadigan mahsulotning sifatiga shuncha salbiy ta'sir qilishi mumkin;
- 2) mahsulot qancha ingichka bo'lsa, cho'zish miqdorini shuncha katta olish mumkin;
- 3) mahsulot texnologik jarayondan o'tgan sari ingichkalashib, cho'zish miqdori ko'payib boradi;
- 4) yigirish mashinasida cho'zish miqdori qancha ko'p bo'lsa, yigirish rejasining iqtisodiy ko'rsatkichlari shuncha yaxshi bo'ladi, chunki cho'zish asbobi quvvatidan to'laroq foydalaniladi.

Tarash mashinasida pilta chiziqiy zichligini va cho'zish miqdorini tanlaganda ham, tavsiyanomalarga tayanib, hamda olinadigan ip chiziqiy zichligiga qarab, oldin piltaning chiziqiy zichligini tanlab, keyin cho'zish miqdorini aniqlash kerak, yoki oldin cho'zish miqdorini tanlab, keyin pilta chiziqiy zichligini hisoblash mumkin.

Yigirish korxonalarining ko'p yillik ish tajribasiga asoslanib, piltalash mashinalarining har ikkala bosqichida ham bir xil qo'shishlar soni qabul qilindi, va shunga yarasha cho'zish miqdori olindi.

Hozir fabrikalarda $d=6$ va $E=6$ yoki $d=8$ va $E=8$ deb qabul kilingan. Ikkala xolatda ham sifatli ip tayyorlash mumkinligi ilg'or korxonalar tajribasida tasdiqlangan [9,11,14].

Har bir o'timda mahsulotning chiziqiy zichligi va cho'zish miqdorini tanlashda, mashinalarning texnik tavsifida keltirilgan imkoniyat chegarasi e'tiborga olinishi kerak.

1. Tarash mashinasi

a) Texnik tasnifi bo'yicha

$$T_p = 3,5 \div 6,5 \text{kteks}$$

b) ITI tavsiyasi buyicha

$$T_p = 4 \text{kteks}$$

v) Korxonada tajribasi buyicha

$$T_p = 5,9 \text{kteks}$$

Bitiruv malakaviy ishida qabul qildim

$$T_p = 6 \text{kteks}; E = 110$$

2. Piltalash birinchi o'tim

a) Texnik tasnifi buyicha

$$T_p = 2,8 \div 7 \text{kteks}; d = 6 \div 8; E = 4 \div 11$$

b) ITI tavsiyasi buyicha

$$T_p = 4 \text{kteks}; d = 6; E = 6$$

v) Korxonada tajribasi buyicha

$$T_p = 5 \text{kteks}; d = 6; E = 6$$

Bitiruv malakaviy ishida qabul qildim

$$d = 6; E = 6$$

$$T_p = \frac{T_{kir}}{E} \cdot d; \quad T_n = \frac{6}{6} \cdot 6 = 6 \text{kteks}$$

3. Piltalash ikkinchi o'tim

a) Texnik tasnifi bo'yicha

$$T_p = 2,8 \div 7 \text{kteks}; \quad d = 6 \div 8; \quad E = 4 \div 11$$

b) ITI tavsiyasi buyicha

$$T_p = 4 \text{kteks}; \quad d = 6; \quad E = 6$$

v) Korxonada tajribasi buyicha

$$T_p = 5 \text{kteks}; \quad d = 6; \quad E = 6$$

Bitiruv malakaviy ishida kabul kildim

$$d = 6; \quad E = 6$$

$$T_p = \frac{T_{kir}}{E} \cdot d; \quad T_n = \frac{6}{6} \cdot 6 = 6 \text{kteks}$$

4. Yigirish mashinasida

a) Texnik tasnifi buyicha

$$T_{IP} = 10 \div 200 \text{teks}; \quad E = 400 \text{gacha}$$

b) Korxonada tajribasi buyicha

$$T_{IP} = 29 \text{teks};$$

Bitiruv malakaviy ishida kabul kildim

Tanda ipi $T_{ip} = 42 \text{teks}$

$$E = \frac{T_p}{T_{IP}} = \frac{6000}{42} = 142,8$$

Arqoq ipi $T_{ip} = 72 \text{teks}$

$$E = \frac{T_p}{T_{IP}} = \frac{6000}{72} = 83,3$$

2.6.2. Ipnining pishitish darajasini xisoblash.

Pishitish deb uzunlik birligiga tug'ri keluvchi buramlar soniga yoki 1 metrga tug'ri kelgan buramlar soni aytiladi.

Yigirish rejasini tuzishda ipning pishitilish darajasini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T}}$$

bu yerda: α - pishitish koeffitsienti: [8]265 bet $\alpha = 46$

T- maxsulotning chiziqli zichligi.

Pishitish koeffitsintlarini maxsulot chiziqli zichligiga, tolaning uzunligiga va ipning qo'llanish ko'lamiga qarab tanlanadi.

Tanda ipi uchun

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T}} = \frac{46 \cdot 100}{\sqrt{42}} = 711 \text{ bur} / m.$$

Arqoq ipi uchun

$$K = \frac{\alpha \cdot 100}{\sqrt{T}} = \frac{43,3 \cdot 100}{\sqrt{72}} = 510,6 \text{ bur} / m.$$

2.6.3 Mashinalarni chiqaruvchi a`zolarini tezliklarini qabul qilish va asoslash

1. Tarash mashinasi

a) mashinaning texnik tavsifisi bo'yicha

$$v_{chik} = 650 - 950 m / min \quad A_n = 280 kg / coat$$

b) ITI tavsifasi buyicha; $A_n = 25 kg / coat$

v) korxonada tajribasi bo'yicha: $v_{chik} = 190 m / min \quad A_n = 60 kg / coat$

Bitiruv malakaviy ishida qabul qildim

$$A_n = 180 kg / coat$$

$$v_{chik} = \frac{A_n \cdot 1000}{60 \cdot T_p \cdot e} = \frac{180 \cdot 1000}{60 \cdot 6,0 \cdot 1,1} = 4959 m / min$$

bunda,

A_n - tarash mashinasining nazariy ish unumdorligi, kg/soat;

v_{chik} - ajratuvchi barabanning aylanish tezligi, m / min;

T_p - piltaning chiziqli zichligi, kteks;

e - ajratish barabani bilan pilta taxlagich o'rtasidagi cho'zilish.

2. SB-D- 45 rusumli 1-o'tim piltalash mashinasi uchun:

a) mashinaning texnik tavsifi buyicha;

$$v_{chik} = 1100m / min ; A_n = 300kg / coat$$

b) ITI tavsiyasi buyicha; $v_{chik} = 330m / min$

v) korxonada tajribasi bo'yicha: $v_{chik} = 700m / min$

Bitiruv malakaviy ishida qabul qildik:

$$v_{chik} = 900m / min$$

3. RSB-D-45 rusumli 2-o'tim piltalash mashinasi uchun:

a) mashinaning texnik tavsifi buyicha;

$$v_{chik} = 1100m / min ; A_n = 300kg / coat$$

b) ITI tavsiyasi buyicha; $v_{chik} = 330m / min$

v) korxonada tajribasi bo'yicha: $v_{chik} = 700m / min$

Bitiruv ishida qabul qildik:

$$v_{chik} = 850m / min$$

4. R- 60 rusumli yigirish mashinasi uchun:

a) mashinaning texnik tavsifi buyicha;

$$n_k = 150000min^{-1} ; v_{chv} = 235m / min$$

b) korxonada tajribasi bo'yicha: $n_k = 80000min^{-1}$

v) Bitiruv malakaviy ishida qabul qildik:

$$n_k = 90000min^{-1}$$

Qisqa yigirish rejasi

15-jadval

O'timlar va jixozlar	Maxsulot chiziqli zichligi, teks		Cho'zish	Qo'shish	Pishitish		Tezlik	
	T _{KIR}	T _{ChIK}	E	d	α	K	n	g
Tarash		6000		1				495,9
Pitalash o'tim 1	6000	6000	6	6				900
Pitalash o'tim 2	6000	6000	6	6				850
Yigirish tanda arqoq	6000 6000	42 72	142.8 83.3	1 1	46 43.3	711 510.6	90000 90000	

2.7. Mashinalarning nazariy ish unumdorligini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishimda qabul qilingan chiziqli zichlik, pishitish darajasi, chikaruvchi a'zolarining tezliklarini xisobga olgan xolda mashinalarning nazariy ish unumdorligini xisoblanadi:

1. Tarash mashinasi

$$A_n = \frac{v \cdot 60 \cdot T_p \cdot \ell}{1000} = \frac{495,9 \cdot 60 \cdot 6000 \cdot 1,1}{1000 \cdot 1000} = 180 \text{ kg / coat}$$

2. Pitalash birinchi o'tim, 1 ta chiqarish uchun

$$A_n = \frac{v_{chik} \cdot 60 \cdot T_p}{1000} = \frac{900 \cdot 60 \cdot 6000}{1000 \cdot 1000} = 324 \text{ kg / coat}$$

3. Pitalash ikkinchi utim, 1 ta chikarish uchun

$$A_n = \frac{v_{chik} \cdot 60 \cdot T_p}{1000} = \frac{850 \cdot 60 \cdot 6000}{1000 \cdot 1000} = 306 \text{ kg / coat}$$

4. Yigirish mashinasi

Tanda ip uchun

$$A_n = \frac{n_k \cdot 60 \cdot T_{IP}}{K \cdot 1000} = \frac{90000 \cdot 60 \cdot 42}{711 \cdot 1000 \cdot 1000} = 0,3189 \text{ kg / coat}$$

Arqoq ipi uchun

$$A_n = \frac{n_p \cdot 60 \cdot T_{IP}}{K \cdot 1000} = \frac{90000 \cdot 60 \cdot 72}{510,6 \cdot 1000 \cdot 1000} = 0,7615 \text{ kg / coat}$$

2.8. Mashinalarning foydali vaqt ko'effitsenti va ishlash ko'effitsentlarini asoslash

Texnologik jixozlar ishlash davrida turli sabablarga ko'ra to'xtatiladi. Bunday sabablar jarayon moxiyatiga muvofiq zarur sabablar, yoki rejali to'xtashlar xisoblanadi. Mashinalardan to'la foydalanish ko'effitsenti ikki tashkil etuvchidan iborat.

$$MFK = F.v.k. \cdot M.i.k$$

bu yerda: *F.v.k.* – foydali vaqt ko'effitsenti;

M.i.k. – mashina ishlash ko'effitsenti.

Ko'effitsentlarni xisoblash va asoslash uchun ma'lumotlar quyidagi jadvalga jamlangan.

Mashinalarning foydali vaqt va ishlash ko'effitsentlari

16-jadval

Texnologik jarayondagi o'timlar	Ilmiy tekshirish institutlarining tavsiyasi		Ishlab turgan korxonavi tavsiyasi		BMI qabul qildik	
	F.v.k	M.i.k	F.v.k	M.i.k	F.v.k	M.i.k
Tarash	0,92	0,95	0,94	0,97	0,95	0,97
Pitalash 1-o'tim	0,81	0,975	0,82	0,975	0,9	0,975
Pitalash 2-o'tim	0,81	0,975	0,82	0,975	0,9	0,975

Yigirish	0,95	0,96	0,94	0,95	0,94	0,98
----------	------	------	------	------	------	------

2.9. Jixozlarning unumdorlik normasi va xisobiy unumdorliklari

